



IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT INTEGRATIV KO'P FUNKSIYALI FAOLIYAT SOHASI SIFATIDA

PhD, dots. **Xasanova Gulsanam Xusanovna**
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
ORCID: 0009-0005-3556-5874
gulsanam.khasanova@jmcu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-madaniy faoliyat integrativ va ko'p funksiyali faoliyat sohasi sifatida tahlil qilinadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat jamiyat hayotining muhim elementi bo'lib, madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, ijtimoiy guruuhlar va qatlamlar o'rtaсидagi hamkorlikni mustahkamlash, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, ushbu faoliyat sohasi ma'rifiy, tarbiyaviy, kommunikativ va estetik funksiyalarga ega bo'lib, ularning integratsiyasi orqali jamiyatning madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada ushbu funksiyalar orasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ularning jamiyatdagi ahamiyati keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: ilk uyushuv shakllari, ijtimoiy-madaniy faoliyat, ijtimoiy-madaniy faoliyat vazifalari, ijtimoiy-madaniy faoliyatning pedagogik asoslari, ijtimoiy va madaniy jarayonlar.

СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ИНТЕГРАТИВНАЯ МНОГОФУНКЦИОНАЛЬНАЯ СФЕРА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

PhD, доц. **Хасанова Гульсанам Хусановна**
Университета журналистики и
массовых коммуникаций Узбекистана

Аннотация. В данной статье социокультурная деятельность анализируется как интегративная и многофункциональная сфера деятельности. Социально-культурная деятельность является важным элементом жизни общества и выполняет такие задачи, как сохранение и развитие культурных ценностей, укрепление сотрудничества между социальными группами и слоями, обеспечение стабильности в обществе. Также данная сфера деятельности имеет воспитательные, коммуникативные и эстетические функции и посредством их интеграции оказывает положительное влияние на культурное развитие общества. В статье описывается взаимосвязь этих функций и их значение в обществе.

Ключевые слова: ранние формы объединения, социокультурная деятельность, задачи социокультурной деятельности, педагогические основы социокультурной деятельности, социокультурные процессы.

SOCIO-CULTURAL ACTIVITY AS AN INTEGRATIVE MULTIFUNCTIONAL FIELD OF ACTIVITY

*PhD, assoc. prof. Khasanova Gulsanam Khusanovna
Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan*

Abstract. This article analyzes socio-cultural activity as an integrative and multifunctional sphere of activity. Socio-cultural activity is an important element of the life of society and performs such tasks as preserving and developing cultural values, strengthening cooperation between social groups and strata, ensuring stability in society. This sphere of activity also has educational, communicative and aesthetic functions and through their integration has a positive impact on the cultural development of society. The article describes the relationship between these functions and their importance in society.

Keywords: early forms of association, socio-cultural activity, tasks of socio-cultural activity, pedagogical foundations of socio-cultural activity, social and cultural processes.

Kirish.

Mamlakatimizda aholi turli tabaqalari vakillarini badiiy, estetik, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlarda tarbiyalash, odamlarning ma'naviy, ijodiy faolligini oshirish, barkamol insonni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasining o'rni va roli alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat shaxsning ijtimoiy ongini, siyosiy, ilmiy, axloqiy, huquqiy, estetik, diniy e'tiqodlarini rivojlantirishning eng muhim vositasi bo'lib, har bir shaxsga tabaqalashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Mavjud qonuniyatlar, funksiyalar va tamoyillar ijtimoiy-madaniy faoliyatning nazariyasi, metodologiyasi va tashkil etilishiga o'quv jarayonining obyektiv-subyektiv qonuniyatlarini ishlab chiqish, sub'yekt-sub'yekt munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha texnologiyalar va tavsiyalarni asoslash imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat nazariyasi yangi yo'nalish bo'lib, "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" atamasining o'zi faqat 90-yillarda paydo bo'ldi. XX asr ijtimoiy-madaniy faoliyat nazariyasi falsafa, madaniyatning umumiy nazariyasi, madaniyat sosiologiyasi, madaniy psixologiya, pedagogika, etika va boshqa gumanitar fanlari asosida yuzaga kelgan. Uning asosiy vazifasi - uslubiy asoslarni aniqlash va kategorial apparatini ishlab chiqish.

Belyayeva va Belyayevalar (2013) fikricha: "Ijtimoiy-madaniy faoliyat nazariyasini qurishni murakkablashtiradigan muhim muammo bu uni tahlil qilishda uslubiy yondashuvlar va paradigmalarning xilma-xilligi bo'lib, uni tushunishda uslubiy sintezni amalga oshirish kerak, degan xulosaga keladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning mohiyati u murakkabligi tufayli tadqiqotchilarga turli pozisiyalardan ko'rinadi".

Ijtimoiy-madaniy faoliyat nazariyasi madaniy bilimlarning amaliy sohasi hisoblaniladi. Fliyer (2000) fikricha: amaliy madaniyatshunoslik - "madaniy hodisalar rivojlanishining ob'yektiv qonuniyatlarini bilish, madaniyat tarixidagi hodisalarini tavsiflash va izohlash emas, balki o'rganish va shakllantirish tamoyillari va madaniy jarayonlarni maqsadli boshqarish texnologiyalarni hal qiladi....".

Ijtimoiy-madaniy faoliyoti bilan pedagogika fani o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ushbu aloqani aniqlashtirish zarurligi klassik olimlar tadqiqotlarida ham ta'kidlangan. Masalan, Ariarskiy (2012) ("Pedagogik madaniyatshunoslik"), Yu.A.Strelsov ("Erkin pedagogika"), Triodin (2006) ("Madaniyat pedagogikasi") va boshqalar ishlarida ko'rish mumkin.

Professor Triodin (2006) ijtimoiy-madaniy faoliyat haqida gapirar ekan, u o'z mohiyatiga ko'ra "inson - ijodiy xususiyatga ega bo'lib, unga xos bo'lgan salohiyatni har tomonlama ochib berishga, uni takomillashtirishga qaratilganligini ta'kidlaydi. Shu ma'noda ijtimoiy-madaniy

faoliyat ta'lif faoliyati bo'lib, shunga ko'ra bu jarayonning nazariyasi ta'rifiga ko'ra pedagogikadir."

Masalan, Kemerova (2019) "Ijtimoiy-madaniy faoliyat nazariyasi" darsligida shunday yozadi: "Bugungi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyat ijtimoiy-madaniy amaliyot sohasi va madaniy bilimlarning mustaqil sohasi sifatida qaraladi." Va agar biz birinchi qismga to'liq rozi bo'lsak, ikkinchisini to'liq qabul qilmaymiz – "bilimlar maydoni" bo'lish uchun faoliyatni ilmiy darajada tushunish kerak, ya'ni nazariyaga aylanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada tadqiqot muammolari bo'yicha adabiyotlar tahlili, nazariy tahlil, me'yoriy hujatlarni o'rganish, pedagogik kuzatuv, ilmiy umumlashtirish, bahs-munozara usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"Ijtimoiy-madaniy faoliyat" bu jamiyatda turli ijtimoiy va madaniy jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi va ular o'rtasida integratsiyani ta'minlovchi ko'p funksiyali faoliyat sohasi sifatida qaraladi. U insonlarning madaniy rivojlanishiga yordam berish, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, turli guruh va qatlamlarni birlashtirish orqali jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.


Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi qadimiyyidir. Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari esa ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Bu davrda odamlarning madaniy ijtimoiylashuvi hayotni ta'minlash, uning barqaror davomiyligini belgilash zaruratidan yuzaga kelgan. Hayotning moddiy tomonlarini ta'minlash uchun odamlar bir-birlariga ov qilish, baliq tutish, ekin ekish, boshqa jinsn o'ziga jalb etishga erishishni turli o'yinlar, mashqlar tarzida o'rgatib borganlar. O'rgatish uzlusiz, doimiy davom etgan. O'rgatish uzlusizligi va doimiyligi esa ta'limning alohida soha sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan (Asqarov, 2007). Demak, ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'limning asosi bo'lgan deyish ham mumkin.

Odamlar tashqi tabiiy kuchlar (olov, suv, shamol, yer qimirlash) ta'siridan qo'rqb yashaganlar. Shu boisdan ular ta'limni, ya'ni ilk o'rgatish shakllarini olov, suv, shamol, zilzila va boshqa turli ilohiy ma'budalarga ehtirom ko'rsatish bilan uyg'unlashtirilib o'rgatishga intilganlar. Bu intilish esa folklor o'yinlari shaklida bizgacha yetib kelgan (Bekmurodov, Umarov, Qoraboyev, Haydarov, 2016).

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyat turmush tarzini bezash, an'ana va urf-odatlarni o'tkazish, diniy marosimlarni, tabiiy va rasmiy bayramlarni nishonlash shaklida ham namoyon bo'la bordi. Shu tarzda ijtimoiy-madaniy faoliyatning odamlar hayotidan mustahkam joy egallashining asosiyları oydinlashadi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin (Bekmurodov, Umarov, Qoraboyev, Haydarov, 2016):

1. Tabiat kuchlaridan qo'rquv asosidagi uyushuv ehtiyoji;
2. Uyushuvning doimiyligini ta'minlash uchun intilish, ya'ni guruh, qabila, urug' liderlari tomonidan muayyan diniy marosimlarni so'zsiz bajarilishining talab etilganligi;
3. Boshqa qabila, urug'lar tahdididan himoyalanishdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;
4. Qabila, urug' doirasida amal qilib kelinayotgan hayot tarzi, uning davomiyligini ta'minlash maqsadida turli hujumlar (ov qilish, jang qilish, ekin ekish va h.k.)ni yosh avlodga o'rgatib borish zarurati;
5. Naslni davom ettirish zaruratidan kelib chiquvchi ijtimoiy-maishiy ehtiyoj;
6. Bo'sh vaqt ni qiziqarli o'tkazish xohishidan iborat madaniy ehtiyoj;
7. Odamlarni favqulodda vaziyatlarda yalpi safarbar qila olishga erishish zarurati;
8. Odamlarning o'zaro ahilligi, totuv turmush tarzini ta'minlash uchun ularni biror bir mashg'ulot turi bilan band etib turishdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;

9. San'at turlaridan zavq olish, go'zallikka intilish, nafis narsalarni yaratishdan iborat ma'naviy ehtiyoj;
 10. Yoshlarni maqsadli tarbiyalash uchun muayyan ideallarga yo'naltiruvchi sog'lom raqobat ruhini yaratishdan iborat jamiyat ehtiyoji;
 11. Yoshlarni keng dunyoqarash va chuqur bilimli qilib hayotga tayyorlash uchun ularga qo'shimcha bilim berish va hunarlar o'rgatish zarurati;
 12. Jamiyatdagi an'ana, marosim, bayram, urf-odatlarning o'tkazilishini ma'lum tartibotlar asosida muvofiqlashtirib borishdan iborat ijtimoiy ehtiyojlar shular jumlasidandir.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyat shu omillar asosida o'zining asosiy funksiyalariga ega bo'ldi. Bu funksiya, ya'ni vazifalar quyidagilardir:



1-rasm. Ijtimoiy-madaniy faoliyat vazifalari

Falsafa fani doirasida ijtimoiy-madaniy faoliyat doimo rivojlanib boruvchi umuminsoniy bilimlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-madaniy omillarning shaxs rivojlanishiga ta'sirini falsafiy tushunish eng rivojlangan. Falsafa fanining pozisiyasidan konkret shaxs o'zining ijtimoiy mohiyatini faqat individual shaklda ifodalashi mumkin. Shu munosabat bilan madaniy faoliyat shaxs uchun mohiyat va borliqning birligini ifodalaydi. Shaxsning shakllanishi ijtimoiy tajriba va jamiyatning qadriyat yo'nalishlarini o'zlashtirish jarayonida sodir bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning pedagogik asoslari - bu odamlarning ijtimoiy-madaniy faoliyati jarayonida o'rGANISH, tarbiyalash va rivojlanish jarayonlarining xususiyatlarini ochib beruvchi bilimlar majmuasidir. Ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonida ta'lim - umumiyl, madaniy va maxsus bilimlarni tarqatish, hayot va muvaffaqiyatli mehnat uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun tashkil etilgan maqsadli faoliyat. Yangi bilim, ko'nikma va malakalar bilan boyitish maxsus mashg'ulotlarda, mashqlar paytida ham, mustaqil ravishda madaniy va badiiy tasvirlar misolida amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Maqsadga muvofiqligi

ko‘p qirraligi

faol o‘zaro ta’siri

ijodiy yo‘nalganligi

oddiydan
murakkabga
yo‘naltirilganligi

ishtirokchilarning
yuqori motivatsiyasi

2-rasm. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tadbirdlari xususiyatlari

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning sotsiologik asoslari madaniy va ijtimoiy hodisalarning o‘zaro ta’sirini ochib beruvchi bilimlardir. Hozirgi vaqtida bu hodisalar, qoida tariqasida, bo‘sh vaqt sotsiologiyasi doirasida o‘rganilmoqda. Madaniyat funksiyalarini sotsiologik tushunish: kommunikativ - ijtimoiy tajribani to’plash va uzatish; tartibga solish - inson harakatlarini nazorat qilish uchun ko‘rsatmalar va tizimni yaratish; integratsiya - ijtimoiy tizimlar barqarorligining eng muhim sharti sifatida ma’nolar, qadriyatlar va me’yorlar tizimini yaratish.

Madaniyatshunoslik ijtimoiy-madaniy faoliyatning muhim ilmiy asosidir. Inson taraqqiyoti, madaniyatshunos olimlarning fikricha, madaniy qadriyatlarni yaratish va tarqatish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy-madaniy tadbirdlar jarayonida eski madaniy qadriyatlar tarqaladi va yangilari yaratiladi. Madaniy qadriyatlarni ishlab chiqarish va mavjudligining asosiy sohalari kundalik hayot, mafkura, din va badiiy madaniyat (san’at) hisoblanadi. Kundalik madaniyat shaxsiy madaniyatni shakllantirish uchun asos bo‘lib qolmoqda. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda mehnat, oila, vatan, kattalarga hurmat, xulq-atvor me’yorlari kabi oddiy, tabiiy, shu bilan birga fundamental qadriyatlar shakllanadi.

Madaniyatdagi shaxsning hissiy va qadriyat yo‘nalishlarining quyidagi turlari ajratiladi (Jarkov, 2012):

- a) dunyo va insonning mutlaq uyg‘unligiga erishish;
- b) epiklik va dramatiklik (dunyoni va undagi o‘zini so‘zsiz qabul qilish);
- c) fojia va hazil (yuqori qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat fojiasi va uni hazil yordamida yengish);
- d) qahramonlik (dunyoni idealga mos ravishda o‘zgartirish) va invektiv (ideal bo‘lmagan qadriyatlar tizimini inkor etish);
- e) romantika (qahramonlik orzusi) va satira (boshqa odamlarning qadriyatlarini ramziy "kulgi bilan yo‘q qilish");
- f) sentimentallik (badiiy ifodalangan hamdardlik) va kinizm (o‘z "men" ning mutlaq qiymati);
- g) kinoya (aksini tasdiqlamasdan skeptik inkor etish).

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning iqtisodiy asoslari bozor iqtisodiyoti imkoniyatlaridan foydalangan holda madaniyat muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan bilimlardir. Bu ish davlatning maqsadli madaniyat siyosatini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy qo’llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Madaniyat muassasasining xo‘jalik faoliyati uning faoliyatining me’yoriy belgilangan maqsadlari, shaxsiy va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bu, birinchi navbatda, ijodiy jarayonning ishlashini ta’minlashga qaratilgan. Madaniyat muassasalari xo‘jalik faoliyatining vazifalaridan biri fuqarolarning madaniy saviyasini oshirish va tarbiyalashga qaratilgan maqsadli dasturlarni moliyaviy va moddiy ta’minlashdir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning huquqiy asosini ijtimoiy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va qonunosti hujjatlarini bilish tashkil etadi. YUNESKO Konstitutsiyasida barcha xalqlar inson qadr-qimmatini saqlash uchun adolat, erkinlik va tinchlik asosida madaniyat va maorifni barcha xalqlar o'rtasida keng tarqatishning muqaddas mas'uliyati ekanligi ta'kidlangan.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatda uning jarayonining asosiy mazmunini tashkil etuvchi quyidagi hodisalar ajralib turadi:

- ijodkorlik (madaniy qadriyatlarni yaratish);
- trening (ijro mahoratini oshirish, takrorlash);
- ta'sir (tadbirda faol ishtirok etish);
- tashkil etish va boshqarish (boshqaruv).

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning ilmiy-nazariy asoslari turli fanlar va nazariy konsepsiyalarga asoslanadi. Ushbu faoliyatning asosiy nazariy asoslari quyidagilardan iborat:

1. Sotsiologiya. Sosiologiya ijtimoiy munosabatlar, strukturalar va jarayonlarni o'rganadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat sosiologik nazariyalarga asoslanib, jamiyatdagi ijtimoiy rollar, normalar va qadriyatlarni aniqlashga yordam beradi.

2. Psixologiya. Psixologiya ijtimoiy faoliyatning shaxs va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarini, moslashuvini va ijtimoiy ta'sirni o'rganadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda insonning psixologiyasi, motivatsiyasi va ijtimoiy identifikatsiyasi muhim ahamiyatga ega.

3. Antropologiya. Antropologiya madaniyat, an'analar va ijtimoiy strukturalarni o'rganadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat antropologik nazariyalarga asoslanib, madaniy farqlar va ularning ijtimoiy faoliyatga ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

4. Falsafa. Falsafa ijtimoiy-madaniy faoliyatning etik, estetik va ontologik aspektlarini o'rganadi. Falsafiy nazariyalar ijtimoiy adolat, inson huquqlari va madaniy qadriyatlarning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

5. Tarix. Tarix ijtimoiy-madaniy faoliyatning tarixi, rivojlanishi va o'zgarishlarini o'rganadi. Tarixiy kontekst ijtimoiy faoliyatning zamonaviy shakllarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

6. Iqtisod. Ijtimoiy-madaniy faoliyat iqtisodiy shart-sharoitlar va resurslarning taqsimoti bilan bog'liq. Iqtisodiy nazariyalar ijtimoiy faoliyatning moliyaviy va resurslar bilan bog'liq jihatlarini o'rganishga yordam beradi.

7. Siyosatshunoslik. Siyosatshunoslik ijtimoiy-madaniy faoliyatning siyosiy konteksti, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Siyosiy nazariyalar ijtimoiy faoliyatning siyosiy ta'sirini va faoliyatning siyosiy jarayonlarga ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

8. Madaniyatshunoslik. Madaniyatshunoslik ijtimoiy-madaniy faoliyatning madaniy aspektlarini, an'analarini va qadriyatlarni o'rganadi. Madaniyatning ijtimoiy faoliyatga ta'siri va madaniy almashinuvlar muhim ahamiyatga ega.

9. Ta'lim nazariyalar. Ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'lim jarayonlari bilan bog'liq. Ta'lim nazariyalar talabalarning ijtimoiy faoliyatdagi ishtiroki, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

10. Ijtimoiy innovatsiyalar. Ijtimoiy innovatsiyalar ijtimoiy-madaniy faoliyatda yangi g'oyalar, loyihibar va faoliyat shakllarini rivojlantirishga yordam beradi. Innovasion yondashuvlar ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu nazariy asoslar ijtimoiy-madaniy faoliyatning samarali va maqsadli bo'lishi uchun zarur bo'lgan konseptual ramkani yaratadi. Ular ijtimoiy faoliyatning turli jihatlarini tushunish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat jamiyatning turli sohalarini o'zaro bog'lab, shaxsiy va jamoaviy rivojlanishga yordam beradigan muhim integrativ faoliyat sohasidir. Bu soha ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, yoshlar va keng

jamoatchilikni birlashtirish orqali jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga va madaniy boyliklariga xizmat qiladi. U ko'p funktsiyali bo'lib, ijtimoiy yordam, ta'lim, madaniy tadbirlar va axborot tarqatish orqali odamlar o'rtasidagi hamkorlik va muloqotni mustahkamlaydi.

Demak, ijtimoiy-madaniy faoliyat amaliyotdir. Lekin uni fan sifatida o'rganish, tizimlashtirish, qonuniyatlarini izlash va yanada takomillashtirishning optimal yo'llarini izlash kabi vazifalari mavjud. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning nazariy bazasini shakllantirishning asosi sifatida ko'p qirrali ilmiy yondashuvlarni birlashtirishning yadrosi bo'lgan pedagogika fanining apparati va tushuntirish imkoniyatlari e'tirof etilishi kerak.

Tadqiqot jarayonida qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular quyidagilar:

- Ta'lim va tarbiya tizimida integratsiyani kuchaytirish: ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'lim tizimiga kiritilishi, o'quv dasturlariga madaniy tarbiya va ijtimoiy ko'nikmalarini o'rgatuvchi darslar qo'shilishi lozim. Bu yosh avlodning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda muhim rol o'yнaydi.
- Madaniy tadbirlar va loyihalar orqali jamiyatni birlashtirish: turli yosh toifalari uchun madaniy va ijodiy loyihalar tashkil etish orqali jamoatchilikni yanada birlashtirish, o'zaro hurmat va madaniy xilma-xillikni targ'ib qilish mumkin.
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish: ijtimoiy-madaniy faoliyatni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilish, keng ommaga yetkazish uchun raqamli platformalarni yanada rivojlantirish muhimdir. Shu orqali ijtimoiy tarmoqlarda hamkorlikka asoslangan loyihalarni kengaytirish va xalq bilan muloqotni osonlashtirish mumkin.
- Yoshlar va jamoatchilik faolligini rag'batlantirish: ijtimoiy-madaniy tadbirlarda yoshlar va keng jamoatchilikni faol qatnashishga jalb qilish uchun motivatsion dasturlar, tanlovlardan mukofotlash tizimlari joriy qilinishi lozim.
- Mahalliy hamjamiatlar bilan hamkorlik: har bir hududning o'ziga xos madaniyati va an'analari bor. Shuning uchun ijtimoiy-madaniy faoliyat mahalliy sharoitlarga mos ravishda tashkil etilishi, mahalliy hamjamiatlarning faol ishtiroti va tashabbuslari qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

- Khasanova, G. (2023). THE ESSENCE OF SOCIO-CULTURAL ACTIVITIES AND ITS ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS. *Science and innovation*, 2(B7), 92-96.
- Асқаров. (2007) Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. - Т.
- Ариарский, М.А. (2012) Педагогическая культуровология. В двух томах. Т. 1. Методология и методика постижения культуры. – Санкт-Петербург : Концерт, – 400 с.
- Бекмуродов М., Умаров А., Қорабоев У., Ҳайдаров З. (2016) "Ижтимоий-маданий фаолият тарихи, назарияси ва услубияти". Тошкент. Маънавият.
- Беляева Л.А., Беляева М.А. (2013) Социально-культурная деятельность: структурно-функциональная модель // Вестн. Челяб. гос. академии культуры и искусств. № 1 (33). С. 68.
- Бессонова Ю.А., Степанченко О.В. (2017) «Понятийно-терминологическая система социально-культурной деятельности» - СПБ. Изд-во Лань: - 160 с.
- Вайсеро К., Хоменко В. (2016) "Основы социально-культурной деятельности". Москва.
- Жарков А.Д. (2012) Теория, методика и организация социально-культурной деятельности: Учебник. - М.: МГУКИ. - 456 с.
- Кемерова, Т.А. (2019) Теория социально-культурной деятельности: учебное пособие / Т. А. Кемерова; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский федеральный университет. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та. – 103 с.
- Киселева, Т.Г. (2004) Социально-культурная деятельность: учебник / Т. Г. Киселева, Ю. Д. Красильников; М-во образования и науки Рос. Федерации, Моск. гос. ун-т культуры и искусств. - Москва : Моск. гос. ун-т культуры и искусств. - 539 с.

Мурзина И.Я. (2017) Человек креативный и его роль в развитии социокультурного потенциала региона // Модернизация культуры: от человека традиции к креативному субъекту: материалы V Междунар. науч-практ конф: в 2 ч. / под ред. С. В. Соловьевой, В. И. Ионесова, Л. М. Артамоновой. Самара: Самар. ГИК. С. 93.

Триодин, В.Е. (2006) Теория социально-культурной деятельности: объект и предмет исследования // Социально-культурная деятельность: теория, технологии, практика: коллективная монография /Ред. сост. Л.Е. Осипова; науч. ред. В.Я. Рушанин; Челябинская государственная академия культуры и искусств. – Ч. 1., С. 30-48.

Флиер А.Я. (2000) Культурология для культурологов: Учебное пособие для магистрантов и аспирантов, докторантов и соискателей, а также преподавателей культурологии. — М.: Академический Проект, -496 с.